YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD – UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARI.

https://doi.org/10.5281/zenodo.5979505

Quqonboyev Shaxzodbek Ilxomboy o'gli
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
2–bosqich talabasi.

Annotasiya: *Maqolada "Ma'rifiy Uyg'onish" yani "Renessans" davri yutuqlari, bu davrni Vatanimiz va butun jahon taraqqiyotida tutgan o'rni va ro'li, "Yangi O'zbekiston" yaratayotgan "Uchinchi Renessans" va bu maqsadga erishish yo'lida ma'naviyatli yoshlarning asosiy tayanch bo'lmoqliklari va vatanimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish eng oliy saodat ekanligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar*: Renessans, Yangi O'zbekiston, Ma'rifiy Uyg'onish, yuksak ma'naviyat, ma'naviy qudrat, ma'naviy immunitet, intellektual salohiyat, kashfiyot, boqiy qadriyat*

Qadimiyati uzoq, tarixi so'nmas buloqlardan boshlangan, bu buloqlar orqali butun zaminni nurli ilm o'g'iti bilan oziqlantirgan, katta – katta daryolarni ma'rifat suvlaridan bebahra holda qurib qolishidan asragan, ne ne jahongirlar, olimlar, ulamolar, mutafakkirlar, donishmandlarni o'zining iliq bag'rida komillik sari tarbiya qilgan, bu orqali butun dunyo ma'naviyat beshigining tebratuvchisi bo'lgan bu yurt, bu muqaddas zamin bugunga kelib ham o'zining yangi strategik rejalari bilan keng taraqqiyot pillapoyasi bo'ylab yuqori bosqichlar tomon qadam bosmoqda. Agar bu tuproqda ma'naviyat urug'i ekilmaganida, balkim butun dunyo ma'naviyat tushunchasidan bexabar bo'lardi. Ha, tarix ham shohid, insonlar ham bunga iqrorlar. Aynan ma'naviyat va ma'rifat quyoshining bu muqaddas zaminda birinchi porlaganiga butun koinot guvohlik beradi. Har bir gapning tasdiqi o'laroq, biz ham buni oddiygina qilib isbotlaymiz. Bunga asosiy mezon qilib birinchi "Renessans"ni sharqda paydo bo'lganligi, agar bu uyg'onish yuzaga kelmaganda esa undan ilhom olgan "G'arb Renessans"ini yuksak maqomda vujudga kelmasligi bilan ham izohlashimiz mumkin. "Sharq Renessansi" asosini ham aynan yurtimiz allomalari boshlab, o'z qarashlari, ilmiy daholiklari bilan yuksak darajaga olib chiqdilar. Sharq uyg'onish davri dastlab IX –XII arslarda keyinchalik esa, ikkinchi uyg'onish davri XIV – XV asrlarda barcha sohalarda o'zini namoyon qildi. Bugun esa ma'naviyatli

yosh avlodni tarbiyalash asosida, ularni mana shu yurt tayanchi, poydevori etib yangi marralarni ko‘zlagan “Uchinchi Renessans” ni yaratmoqdek oliy maqsad yo‘lida birlashmoqdamiz. Zamon va makonda har jihatdan yangilanayotgan, jahon hamjamiyatida bugungi O‘zbekiston amaliyotida qilingan jadal islohotlar va u asosda amalga oshirilgan o‘zgarishlarning barchasi bugungi kundagi “Sharq Renessansi”ni qayta tiklayotgan “Yangi O‘zbekiston” pog’onasini yanada yuqoriga ko‘tarmoqda. Bugun biz yoshlarimizni har tomonlama yetuk qilib, har sohaning ustasi qilib yetishtirishimizda, avvalo, ularni ma’naviyat bilan tarbiya etmog’imiz ham zarurat, ham zamon talabidir.

Avvalo, Yangi O‘zbekiston yaratayotgan “Uchinchi Renessans” davrini tarixan, ya’ni Renessans o‘zi qanday jarayon ekanligini ko‘rib chiqsak. Nima uchun biz bu yo‘lni tanladik? Renessans o‘zi qanday ma’noni anglatadi? Qayerdan kelib chiqqan? Kabi bir qancha savollarga atroflicha javob berib o‘tsak. “Renessans” – asli fransuzcha bo‘lgan bu so‘z “qayta tug’ilish” degan ma’noni anglatadi. Bu o‘zbek tiliga “Ma’rifiy Uyg’onish” nomi bilan tarjima qilinadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu davrni sharq olimlari boshlab berdi. Eng quvonarlisi bu yuksaklik davrida bizning yurt allomalarining o‘rni beqiyosdir. Xo‘sh, qanday qilib bu yuksaklikka erishildi? Albatta, ilm va amaliyot natijasida. Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev prezidentlikka saylangan dastlabki yillaridanoq ilm –fan, ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratdilar. Kitob o‘qish va u orqaligina asl ilm mazzasini totish to‘g’risida ko‘plab ta’kidladilar. Prezidentimizning quyidagi so‘zlari kitob borasidagi universal talqin desak adashmagan bo‘lamiz:” Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o‘zining intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda” [1]. Darhaqiqat har ilmni asosida kitob bosh ro‘lni egallaydi. Inson faqatgina u orqaligina ma’naviyatga erishadi. E’tibor berib qaraydigan bo‘lsak, hamma buyuk shaxslar avval kitob orqali ilm olgan. Albatta, inson kitob o‘qishi va uni teran his qilishi natijasida ilm lazzatini topadi. Ilm esa har qachon insonni ko‘klarga ko‘taruvchi, uni har qanday vaziyatdan olib chiqib ketuvchi, ma’naviyat poydevori desak, hech ham yanglishmagan bo‘lamiz. Masalan, buyuk ma’rifiy uyg’onish davrining dunyo tan olgan va tan bergan, muhaddislar sultoni - Imom al – Buxoriyni olaylik. Buyuk muhaddis bo‘lgan bu zot qaysi yurt farzandi edi? Albatta, o‘zbek farzandi edi. Faraz qilaylik, agar Imom Buxoriy bo‘lmaganda nima bo‘lardi? Butun dunyo hadislarning sahihlaridan quruq qolarmidi? Nima boshqa olimlar sahih hadis yozmaganmidi? Ha, rost yana beshta buyuk hadisshunos bor- ku, ular yozavergan bo‘lardi-ku. Xulosa chiqarishga shoshilmang. Bu buyuk shaxs bo‘lmaganda, boshqa muhaddislar o‘zlarining

to‘plamlarini boshlash haqida balki fikr ham yuritmagan bo‘lardi. Sababi sahih hadislarni yig’ish, ularni har tomonlama asoslashni Buxoriydek zot boshlab bergan. Agar Buxoriy bo‘lmaganda, balki butun dunyo hadis ilmidan to‘laqonli xabar topmagan va islom dining muqaddas kitobi Qur’ondan keyingi ishonchli kitob qaysiligi haqida haligacha bahslashayotgan bo‘lar edi. Xo‘sh, Imom Buxoriy bunday darajaga qanday erishdi? Avvalambor, Yaratganning fazli va ilm sabablidir. Bundan tashqari, aqida borasida imom bo‘lgan Abu Mansur al- Moturudiy, islom huquqshunosligida mashhur “Hidoya” asarining muallifi Burhonuddin Marg’inoniy va boshqalar islom dini rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar. Diniy soha singari boshqa sohalarda ham katta yutuqlarga erishildi. Masalan, o‘z zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi Al – Xorazmiy butun dunyoda o‘zining yuksak daholiklari tufayli o‘chmas iz qoldirdi. Bobokalonimizning “Al- jabr val- muqobala” asari matematika sohasida buyuk kashfiyot bo‘ldi. Xorazmiyning aql bovar qilmas darajadagi kashfiyotlarisiz, bugun matematika sohasi o‘zining bugungi yuksak holatiga erisha olmagan bo‘lardi. Bobomiz bu bilan algebra fanining otasiga aylandi. Xorazmiy asarlarining XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilib Yevropaga olib borilishi ham Yevropaning texnika rivojiga asos bo‘lganliga shubha qoldirmaydi. Britaniyalik jurnalist Endryu Marr Xorazmiy va Sharq ma’rifiy uyg’onish davri haqida quyidagi so‘zlarni aytadi: “Yevropa musulmon dunyosidagi ilmiy yuksalishga ergashgan xolos…Al-Xorazmiy trigonometriya, algebra va astronomiya singari sohalarda ham samarali taqdqiqotlar qildi…Uning asosiy ixtisosligi esa, algoritmlar bo‘lgan. Algoritm atamasi aslida al- Xorazmiy ismining yevropacha talaffuzidir. Hozirgi kompyuterlar asrida esa biz texnikani algoritmlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Al-Xorazmiysiz tasavvur eta olmaymiz. Qachonlardir Yevropani yorug’lik sari yetaklagan uyg’onish davrini ham hozirgi taraqqiyotni ham al –Xorazmiy nomisiz tasavvur eta olmaydi. Yana bir gap, har safar uyali telefoningizni qo‘lingizga olganingizda uning ichida buyuk o‘zbek olimi al – Xorazmiy nomi borligini unutmang!” [2]. Biz Yevropada “Alfraganus” nomi bilan shuhrat qozongan buyuk shaxs, o‘zi Movorounnahrda turib, Nilni o‘lchab kelgan, buyuk ixtiro -“gidrometr” ya’ni daryo oqimi sathini o‘lchaydigan asbobni yaratgan, asarlari XII asrdayoq tarjima qilinishga ulgurgan Ahmad al –Farg’oniy, o‘zining “Al– qonun at- tib” asari bilan dunyoni tibbiy sohadagi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Ibn Sino, Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab bergan, Kopernikdan 500 yil oldin Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni ilgari surgan va bormasdan turib Amerika qit’asi mavjudligini tahmin qilgan buyuk shaxs-Beruniylar farzandlarimiz. Ha, bu sharaf, bu faxr yana qaysi millatda bor ekan!? Nima uchun biz Renessans yo‘lini tanlaganimizning asosiy sababi, yuqoridagi daholarni yurtimizga yana qaytarish

uchundir. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar asosida odil siyosatning turganligi hech birimizga sir emas. Yurtboshimizning sa'y- harakatlari natijasida bugun mamlakatimiz yangilanish sari odimlamoqda. Il esa bu yo'lda asosiy tayanch qismdir. Muhtaram Prezidentimiz ilm borasida quyidagi fikrlarni aytib o'tganlar: "Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Eng katta boylik- bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir" [3]. Ilmga bu qadar e'tibor albatta yoshlarimizni olg'a yurishga va yurtimiz kelajagi yo'lida mustahkam poydevor bo'lishga undaydi. Kuni kecha poytaxtimiz Toshkentda bo'lib o'tgan "O'zbekiston yoshlar forumi" da ham biz yoshlar katta marralarni egallashni reja qilib oldik. Bu forumda Mutaram Prezidentimizning so'zlagan nutqlari orqali biz yanada kuchli, g'ayratli, ilmli va eng asosiysi ma'naviyatli avlod sifatida yurtimiz shanini yanada ko'klarga ko'tarishni, bu yo'lda esa biz asosiy poydevor bo'lishga jon jahdimiz bilan harakat qilmog'imiz zarurligini o'zimiz uchun oliy burch va maqsad deb bildik. Prezidentimizning quyidagi so'zlari biz yoshlarni yanada ruhlantirdi va kuch bag'ishladi:" Siz Xorazmiylar, Farg'oniylar, Beruniylar, Ibn sinolar, va Ulug'beklar, Navoiy, Boburlar, Buxoriylar va Termiziylar avlodisizlar… Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy qadriyatlarini asrab – avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar, albatta, qodirsizlar va bugun menga katta yordamchi bo'lasizlar deb ishonaman" [4]. Albatta, biz yoshlar bu yo'lda birdam bo'lib harakat qilmog'imiz biz uchun sharafdir.Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek:" Biz Yangi O'zbekistonni mard va olijanob xalqimiz bilan barpo etamiz"[5]. Bu muqaddas yo'lni - "Uchinchi Renessans" ni yaratmog'dek sharafli ishni faqatgina ta'lim – tarbiya, bilim orqali amalga oshirishimiz mumkin. Bu uchun esa biz quyi tizimdan, yani maktabgacha ta'limdan bolani kitobga muhabbat ruhida tarbiya etishimiz zarur. Bu ruhda tarbiya ko'rgan yurt farzandi maktabdek muqaddas dargoh ta'limi davrida o'zining keng qirralarini namoyon qiladi va yuqorida sanab o'tilgan daho bobolari izidan boradi. Bunday farzandni tarbiya etish uchun esa, avvalo, shu ilmni bera oladigan yetuk pedagoglarni tayyorlash talab qilinadi. Bunday pedagoglar esa, oliy ta'limning ishonchi va yuzidir. Shunisi e'tiborliki, bu uch tizimni bir biridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Demak birini rivojlantirib, ikkinchisidan natija kutilmaydi, balki bu uch tizimga birdek e'tiborli bo'lish talab etiladi. Yurtboshimizning:" Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm – fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy – texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak", degan so'zlari ham yurtimizda bu boradagi ishlar amalga oshayotganligining yorqin isbotidir [6]. Bundan tashqari, buyuk

shaxslar ortida, albatta, ularning onalari turishi bejiz emas. Shuni hisobga olgan holatda, yosh onalarga psixologik “mahorat darslar”ini har bir mahallada tashkil qilishimiz, bu asosida esa yosh onalarda kitobga muhabbat uyg’otishimiz zarur. Axir, onasining kitob o‘qiganini ko‘rgan farzand ham kitobga mehri oshadi-da. Bejizga xalqimiz “Ona birinchi madrasa” demaydi-da. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining:” Hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”, degan ta’kidlari har birimizni ma’naviyat immunitetini hosil qilishimizda asosiy shior bo‘lishi lozim

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlar, yangilanishlar buyuk kelajagimiz asosidir. Bu kelajakni barpo etmoq uchun xizmat qilish, xoh u yosh bo‘lsin, xoh qari bo‘lsin barchamizning oliy maqsadimizdir. Bu sharafli binoning poydevori esa, albatta yoshlardir. Poydevor qanchalik baquvvat bo‘lsa, bino ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. So‘zimning yakunini Yurtboshimizning quyidagi so‘zlari bilan yakunlamoqchiman:” Aziz farzandlarim sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida yuksak qadrlayman… Uchinchi Renessans poydevorini kim tashkil qiladi degan savolga, albatta, aniq javob bor. Faqat va faqat sizlar”. Bu ishonchni oqlash va yurtimizni butun dunyoga tarannum etishga barcha yoshlarni chorlab qolaman. Biz yoshlar poydevor ekanmiz, bu yo‘lda sadoqat ila xizmat qilishga tayyor ekanligimizni isbotalash vaqti keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti devoning Xalq kutubxonasi ochilish marosimidagi nutqi. // elektron – https://president.uz.
2. https://uTube / ta’lim videopartali.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari. Toshkent -2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Toshkent yoshlar forumi 2021” dagi nutqi. // elektron – https://xs.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari. Toshkent -2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 – yil 28 – dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. //elektron - https://xs.uz.